


Qurilish ishlari

2017 yilning yanvar-iyul oylarida Xorazm viloyatida 740,2 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2016 yilning shu davriga nisbatan 100,1 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 64,4 mlrd. so'mlik yoki o'sish sur'ati 102,9 foizni tashkil qilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 8,7 foizni tashkil qildi.



Qurilish ishlarining mulkchilik shakllari bo'yicha 2017 yil yanvar-iyul oylarida mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 705,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari dagi ulushi 95,3 foizni tashkil qildi. Shuningdek mulkchilikning davlat mulki shakldagi qurilish tashkilotlari tomonidan 35,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari dagi ulushi 4,7 foizni tashkil etdi.

